Ayollarda bachadon bo‘yni saraton oldi kasalliklarining sitologik xususiyatlari

X.B. Mustafayeva, Sh.R. Omonov

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Annotasiya: Ushbu tadqiqotda 18 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan ayollarda bachadon bo'yni sitologik tahlili natijalari keltirilgan. Tadqiqot saratondan oldingi kasalliklarning yoshga bog'liq xolda tarqalishini va ularning sitomorfologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, patologik jarayonlar ko'pincha reproduktiv yoshdagi (18-44 yosh) ayollarda uchraydi. Yassi hujayrali metaplaziya (74%) va yallig'lanish o'zgarishlari (37%) kabi asosiy jarayonlar patologiyalar shaklida ustunlik qilishi aniqlandi. Displastik jarayonlar 5,2% hollarda aniqlangan, ularning aksariyati past darajadagi shikastlanishlar (LSIL - 61,3%) sifatida tasniflangan.

Kalit so'zlar: Bachadon bo'yni, bachadon bo'yni intraepitelial neoplaziyasi, displaziya, sitologik skrining, Pap test, odam papilloma virusi (HPV), LSIL, HSIL.

Аннотация: В данной работе представлены результаты цитологического анализа состояния шейки матки у женщин в возрасте от 18 до 65 лет. Исследование направлено на изучение возрастных закономерностей распределения предопухолевых заболеваний и их цитоморфологических особенностей. Анализ показал, что патологические процессы наиболее часто встречаются у женщин репродуктивного возраста (18–44 года). Установлено, что фоновые процессы, такие как плоскоклеточная метаплазия (74%) и воспалительные изменения (37%), превалируют в структуре патологий. Диспластические процессы выявлены в 5,2% случаев, при этом большая часть из них классифицирована как поражения низкой степени (LSIL — 61,3%).

Ключевые слова: Шейка матки, цервикальная интраэпителиальная неоплазия, дисплазия, цитологический скрининг, Пап-тест, вирус папилломы человека (ВПЧ), LSIL, HSIL.

Abstract: This paper presents the results of a cytological analysis of the cervix in women aged 18 to 65 years. The study aimed to investigate age-related patterns in the distribution of precancerous lesions and their cytomorphological characteristics. The analysis revealed that pathological processes are most common in women of reproductive age (18–44 years). It was established that underlying processes, such as squamous cell metaplasia (74%) and inflammatory changes (37%), predominate in the pattern of pathologies. Dysplastic processes were detected in 5.2% of cases, with the majority of these classified as low-grade lesions (LSIL – 61.3%).

Key words: Cervix, cervical intraepithelial neoplasia, dysplasia, cytological screening, Pap test, human papillomavirus (HPV), LSIL, HSIL.

Dolzarbligi: Bachadon bo‘yni patologiyalari ayollar reproduktiv tizimi kasalliklari tarkibida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. So‘nggi yillarda bachadon bo‘yni saratoni va uning oldi holatlarining ortib borishi global sog‘liqni saqlash muammolaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ma’lumki, bachadon bo‘yni saratoni ko‘pincha uzoq muddat davom etuvchi fon jarayonlar va intraepitelial neoplaziyalar zaminida bosqichma-bosqich rivojlanadi. Shu bois, ushbu kasalliklarni erta aniqlash va samarali skrining dasturlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi: Ayollarda bachadon bo‘yni saraton oldi kasalliklarining sitologik xususiyatlarini aniqlash va ularning yoshga bog‘liq tarqalish qonuniyatlarini o‘rganish.

Material va usullar: Tadqiqotda 18 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan ayollardan olingan bachadon bo‘yni surtmalari sitologik jihatdan tahlil qilindi. Biologik materiallar profilaktik skrining va diagnostik murojaatlar asosida yig‘ildi. Sitologik preparatlar asosida bo‘yaldi va natijalar mezonlari bo‘yicha baholandi. Tahlil jarayonida bemorlar yosh guruhlari (18–29, 30–44, 45–65 yosh) bo‘yicha stratifikatsiya qilinib, patologik o‘zgarishlarning uchrash chastotasi statistik jihatdan o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari: Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, bachadon bo‘yni patologiyalarining eng yuqori uchrash chastotasi 18–29 va 30–44 yosh guruhlarida qayd etildi. Fon jarayonlari orasida yassi hujayrali metaplaziya (rezerv hujayralar giperplaziyasi) ustunlik qilib, umumiy holatlarning 74% tashkil etdi. Yallig‘lanish jarayonlari 37% hollarda aniqlanib, asosan reproduktiv yoshdagi ayollarda uchradi. Shu bilan birga, vaginal disbioz va infeksion omillar, xususan (HPV) bilan bog‘liq sitologik o‘zgarishlar sezilarli ulushni egalladi.

Displastik jarayonlar umumiy tekshirilgan ayollarning 5,2% da aniqlanib, ular quyidagicha taqsimlandi:

Yengil daraja (LSIL) - 61,3%; o‘rta daraja - 24,5%; og‘ir daraja (HSIL) - 10,6%

Displaziyalar asosan reproduktiv yoshdagi ayollarda aniqlanib, ularning yarmidan ko‘prog‘ida HPV bilan bog‘liq sitomorfologik belgilar kuzatildi. Bu esa HPV ning bachadon bo‘yni intraepitelial neoplaziyalari rivojlanishidagi yetakchi etiologik rolini tasdiqlaydi.

Xulosalar:

1. Bachadon bo‘yni saraton oldi kasalliklari asosan reproduktiv yoshdagi ayollar orasida yuqori chastotada uchraydi.

2. Sitologik skrining, xususan Pap-test, fon va displastik jarayonlarni erta bosqichda aniqlashda yuqori diagnostik samaradorlikka ega.

3. LSIL shakllarining ustunligi patologik jarayonlarning erta aniqlanayotganligini ko‘rsatadi.

4. HPV infeksiyasi bachadon bo‘yni displaziyalarining rivojlanishida asosiy etiologik omillardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro’yhati:

1. World Health Organization. Cervical cancer. – Geneva : WHO, 2023.

2. Bosch F.X., Lorincz A., Muñoz N., Meijer C.J., Shah K.V. The causal relation between human papillomavirus and cervical cancer // J. Clin. Pathol. – 2002. – Vol. 55. – P. 244–265.

3. Schiffman M., Castle P.E. The promise of global cervical-cancer prevention // N. Engl. J. Med. – 2005. – Vol. 353. – P. 2101–2104.

4. Solomon D., Nayar R. The Bethesda System for Reporting Cervical Cytology. – New York : Springer, 2015.

5. World Health Organization. Guidelines for screening and treatment of precancerous lesions for cervical cancer prevention. – Geneva : WHO, 2021.

6. Курцман М.Г., Давыдов М.И. Рак шейки матки: современные подходы к диагностике и профилактике // Онкология. – 2020. – № 4. – С. 15–22.

7. Пальцев М.А., Иванов А.А. Патологическая анатомия. – М. : ГЭОТАР-Медиа, 2021.

8. Кулаков В.И., Прилепская В.Н. Заболевания шейки матки // Акушерство и гинекология. – 2019. – № 5. – С. 34–40.

9. Wright T.C., Massad L.S. 2012 updated consensus guidelines for the management of abnormal cervical cancer screening tests // Am. J. Obstet. Gynecol. – 2013.

10. Arbyn M., Weiderpass E., Bruni L. Estimates of incidence and mortality of cervical cancer worldwide // Lancet Glob. Health. – 2020.

11. Darragh T.M., Colgan T.J. The Lower Anogenital Squamous Terminology Standardization Project // Arch. Pathol. Lab. Med. – 2012.